

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI FANINI O'QITISHNING
AFZALLIKLARI

Umida Zakirjanovna Tashmetova

Toshkent shahar Olmazor tumani

234-umumta'lim maktabi oliy toifali ingliz tili fani o'qituvchisi

Abstract: *in this article, the social order of society in our country has increased the need for teaching foreign languages in primary classes and for communicative purposes. English is included as a subject in primary education, training of specialists in the field of foreign language teaching in pre-school and primary education, and English is the most spoken language in the world. is included. I can give many reasons for learning English. But if we cite the main 10 reasons, it is written that it will be interesting and useful for the reader to begin with.*

Key words: *society, foreign, language, primary class, training, education, subject, school, specialists.*

Аннотация: *в данной статье социальный заказ общества в нашей стране повысил потребность в обучении иностранным языкам в начальных классах и в коммуникативных целях. Английский язык включен как предмет начального образования, подготовки специалистов в области преподавания иностранных языков в дошкольном и начальном образовании, а английский язык является самым распространенным языком в мире. Я могу назвать много причин для изучения английского языка. Но если привести основные 10 причин, то написано, что читателю будет интересно и полезно для начала.*

Ключевые слова: *общество, иностранный, язык, начальный класс, обучение, воспитание, предмет, школа, специалисты.*

Annotatsiya: *ushbu maqolada Mamlakatimizda jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi xorijiy tillarni boshlang'ich sinflarda va kommunikativ maqsadlarda o'qitilishiga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Ingliz tili boshlang'ich ta'limga o'quv predmeti sifatida kiritildi, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitish yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash xamda ingliz tili dunyoda eng ko'p insonlar tomonidan so'zlanadigan tillar qatoriga kiradi. Ingliz tilini o'rganish uchun ko'p sabablarni keltirib o'tishim mumkin. Ammo asosiy 10 ta sababni keltirsak, o'quvchi uchun boshlanishiga ham qiziq va foydali bo'lishi to'g'risida yozilgan.*

Kalit so'zlar: *jamiyat, xorij, til, boshlang'ich sinf, o'qitilish, ta'lim, predmet, maktab, mutaxassislar.*

Ingliz tili (inglizcha: English) — hind-yevropa oilasining german guruhiga kiruvchi til. Ingliz xalqining tili. Avstraliya, AQSH, Birlashgan Qirollik, Hindiston, Irlandiya, JAR, Kanada, Liberiya, Malta va Yangi Zelandiyaning rasmiy tili. Ingliz tili dunyodagi eng ko'p

ishlatiladigan tillar ichida 3-o'rinda turadi (Ispan hamda Mandarin Xitoycha tillardan keyin). Yevropa Ittifoqining asosiy tili.

Ingliz tili BMTning rasmiy ish yuritish tillaridan biri, Buyuk Britaniya, Irlandiya, Shim. Amerika, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Osiyo va Afrikadagi ko'pgina mamlakatlarda tarqalgan. Bu tilda yer yuzidagi 400 milliondan ortiq kishi gaplashadi (1992). Buyuk Britaniya va Shim. Irlandiya, AQSH, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Kanada (fransuz tili bilan birga), Irlandiya (irland tili bilan birga), Hindiston va 15 ta Afrika davlati (JAR, Nigeriya, Gana, Uganda, Keniya, Tanzaniya va b.)da rasmiy til sifatida qo'llaniladi.

Ingliz tili qadimgi german qabilalari (ingliz, saks va yut)ning tillaridan kelib chiqqan. Ingliz tili Angliyaning Anglo-Sakson qirolliklari hamda hozirgi janubiy-sharqiy Shotlandiya yerlari avvalgi Norzumbriya qirolligida vujudga keldi. Tarixiy manbaalarga ko'ra, eski ingliz tili juda ko'plab shevalar turkumini o'z ichiga oladi. Qadimiy ingliz tili (7– 11-asrlar) anglosaks tili deb atalgan va 4 shevaga ega bo'lgan: nortumbriy, mersiy, uestek va kent. 9–11-asrlarda uestek shevasi asosida adabiy ingliz tili shakllangan. Bu shevalar turkumi Buyuk Britaniyaning sharqiy qirg'og'iga nemis qabilalari bo'lmish anglo-saksonlar tomonidan keltirilgan. English (ingliz) so'zi Angles so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu xalqning ajododlar yurti Angeln hozirgi Schleswig-Holstein bo'lgan. Ingliz so'zlarning ko'pchiligi Lotin tilidan olingan, vaholanki lotin tili Xristian Cherkovi hamda Yevropa tafakkur doirasining tili edi. Vikinglarning 8 hamda 9-asrdagi istilosidan keyin ingliz tili eski norz-tilining bir qismini o'zlashtirdi. Angliyaning 11-asrda Normandlar tomonidan egallanilishi norman fransuz tilininin ingliz tili bilan qorishishiga olib keldi. Aynan shu sababli ingliz tili lug'aviy va imloviy tarzda roman tillar turkumiga aloqador. O'rta ingliz tili (12–15-asrlar) urg'usiz unilarning reduksiyaga uchrashi natijasida fe'llik so'z birikmalari ko'p o'zgarishlarga uchragan. 16–17-asrlarda yangi ingliz tili yuzaga kelgan. Buyuk Britaniyaning 17 va 20-asr o'rtasidagi kuchli rivojlanishi hamda AQSHning 20-asrdagi dunyoviy tasiri ostida ingliz tilining xalqaro nufuzi oshdi.

So'nggi paytlarda ingliz tilini o'rganadigan har qanday yoshdagi odamlar soni juda ko'paymoqda. Buning sababi, hayot jarayonida ingliz tilini bilmasdan yashash qiyinlashib bormoqda. Ammo til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Hatto, olimlar bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtirishni isbotlashgan. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtning ko'pligi va o'rgangan ma'lumotlarni tez xotirada saqlashi buning asosiy sabablaridandir.

Mamlakatimizda jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi xorijiy tillarni boshlang'ich sinflarda va kommunikativ maqsadlarda o'qitilishiga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Ingliz tili boshlang'ich ta'limga o'quv predmeti sifatida kiritildi, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitish yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 60 foizi ikki yoki undan ortiq tillarda so'zlasha olishi barchaga ma'lum. Jahonda globallashuv jarayonlarini tezlashtirish, erkin bozor munosabatlariga o'tish va ishlab chiqarishga yuqori texnologiyalarni joriy etishning rag'batlantirilishi «lingvistik kapital»ga, ya'ni chet tillarni (ayniqsa, ingliz tilini) mukammal egallagan mutaxassislarga ehtiyojni kuchaytirmoqda.

Ingliz tili dunyoda eng ko'p insonlar tomonidan so'zlanadigan tillar qatoriga kiradi. Ingliz tilini o'rganish uchun ko'p sabablarni keltirib o'tishim mumkin. Ammo asosiy 10 ta sababni keltirsak, o'quvchi uchun boshlanishiga ham qiziq va foydali bo'ladi.

1. Babel ma'lumotiga ko'ra, yer yuzida 7.5 milliard inson bo'lsa, shulardan 20% insonlar ingliz tilini bilishar ekan. Har 5 odamdan bir kishi ingliz tilini bilishi yoki tushunishi ayni haqiqat deb qarasa, ingliz tilini bilgan odam dunyoning qaysi nuqtasiga borsa ham so'zlasha olar ekan.

2. Ingliz tili ilm-fan, texnologiyalar, turizm va diplomatik aloqalar tili hisoblanadi.

Keling xohlagan dasturlash tilini olaylik, barchasi ingliz tilida yozilgan. Eng yaxshi kitoblar, maqolalar ingliz tilida choq etiladi. Diplomatik munosabatlar barchasi ingliz tilida yuritiladi.

3. Ingliz tili 53 davlat rasmiy tili hisoblanadi. Aholi zich davlatlar aholisi aksariyati ingliz tilida so'zlashadi. Keling bir necha rivojlangan davlatlarni keltirib o'tsam.

Amerikada taxminan 231 million inson ingliz tilidan birinchi til sifatida foydalanadi. Kanadada bu ko'rsatkich 19 million.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Yevropada 450 million kishi ingliz tilini bilishsa, Osiyoda ham bu ko'rsatkich juda yuqori. Hindiston – 125 million, Pokiston – 94 million, Filipin – 90 million

4. Dunyo bo'ylab 400 milliondan ortiq insonlar ingliz tilida so'zlashuvchi oilalarda ulg'ayishgan, va birinchi ona tili sifatida aynash shu tildan foydalanashidi.

5. Ingliz tili media tili hisoblanadi.

Birinchi ma'lumot ingliz tilida ommaga tatbiq qilinadi. Ingliz tilini bilgan odam, birinchilardan bo'lib dunyo yangiliklaridan bahramand bo'ladilar.

6. Ingliz tili internet tili.

Ko'pgina veb sahifalar, platformalar, ilovalar ingliz tilida yozilgan. Ingliz tilini bilsangiz, ko'pgina qiziq forumlar, zamon bilan hamnafas bahs-munozaralarda ishtirok etishingiz mumkin.

7. Ingliz tili oson alifbodan tashkil topgan. Boshqa tillarga solishtirganda o'rganish oson. O'rganish uchun manbalar ko'pligi bo'yicha ham ingliz tili turadi.

8. Ingliz tili qiziq til. Uni o'rganishni boshlagan odam hechqachon zerikmaydi. Oson o'rganish usullari mavjud. Barcha ma'lumotlar ingliz tilida bo'lgani uchun, atrof muhit ingliz tiliga boy. Shuni inobatga olsak, ingliz tilini o'rganishga sayohat juda oson kechadi.

9. Eng yaxshi oliygohlar, o'quv kurslari, onlayn kurslar ingliz tilida. Siz bilgan MIT, Harvard, Oxford universitetlari programmalari barchasi ingliz tilida. Dunyoning eng nufuzli 1000ta universiteti ingliz tilida programmlar taklif qilishadi. Kasb mutaxasislari ingliz tilini bilishadi. Dasturlash tili mutaxasislari barchasi ingliz tilini bilishi talab qilinadi.

10. Ingliz tilini bilishingiz sizni boshqa davlatlarga qo'rqmasdan ko'chib o'tib ozroq vaqt yashab, o'qib, ishlashingizga zamin yaratadi. Migratsiya uchun yo'l bu ingliz tili hisoblanadi. Amerika, Avstraliya, Kanada, Yangi Zellandiya va Yevropaning ko'pgina davlatlari ingliz tilida o'qish, ishlash va yashash imkonlarini beradi.

Ingliz tilini bilsangiz, sayohat qilishdan qo'rqmasangiz ham bo'ladi. Dunyoning qaysi burchagiga borsangiz ham o'z rizqingizni shu sabab topa olasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bekmuratova U.B . " Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" // Toshkent 2012.
2. Toliboboeva, S. J. (2020). TEACHING INTERCULTURAL COMMUNICATION IN ENGLISH. ScienceandEducation, 1(SpecialIssue 2).
3. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. <https://hasanboy.uz/ingliz-tilini-organish-uchun-10-ta-sabab/>